

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI  
AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 RAQAMLI ILMY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI  
AKADEMIYASI**

**MUHAMMADALIYEV MINHOJIDIN QURBONALI O‘G‘LI**

**KO‘RSATUVLARNI OLDINDAN MUSTAHKAMLAB QO‘YISH  
INSTITUTINING DALILLARNI BAHOLASHDAGI O‘RNI**

**12.00.09 – Jinoyat protsessi. Kriminalistika, tezkor-qidiruv  
huquq va sud ekspertizasi**

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of the abstract of the dissertation of the doctor of philosophy (PhD)**

**Muhammadaliyev Minhojiddin Qurbonali o‘g‘li**

Ko‘rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo‘yish institutining

dalillarni baholashdagi o‘rni ..... 3

**Мухаммадалиев Минхожидин Курбонали угли**

Роль института предварительного закрепления показаний в оценке

доказательств..... 24

**Muhammadaliyev Minhojiddin Qurbonali ugli**

The role of the institution of preliminary confirmation of testimony in

the assessment of evidence ..... 47

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works..... 51

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI  
AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 RAQAMLI ILMY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI  
AKADEMIYASI**

**MUHAMMADALIYEV MINHOJIDIN QURBONALI O‘G‘LI**

**KO‘RSATUVLARNI OLDINDAN MUSTAHKAMLAB QO‘YISH  
INSTITUTINING DALILLARNI BAHOLASHDAGI O‘RNI**

**12.00.09 – Jinoyat protsessi. Kriminalistika, tezkor-qidiruv  
huquq va sud ekspertizasi**

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida V2023.2.PhD/Yu1078 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Akademiya Ilmiy kengashi veb-sahifasi (<https://akadmvd.uz>) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Rajabova Mavjuda Abdullayevna**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Murodov Baxtiyorjon Baxodirovich**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Qo‘shaev Nurali Mahmudovich**  
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi  
huzuridagi Sudyalar oliy maktabi**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 25-mart kuni soat 11:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100197, Toshkent sh., Intizor ko‘chasi, 68. Tel./faks: (+99871) 265-22-52; e-mail: [info@akadmvd.uz](mailto:info@akadmvd.uz)).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1528 raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100197, Toshkent sh., Intizor ko‘chasi, 68. Tel.: (+99871) 265-22-52.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 10-mart kuni tarqatildi.

(2025-yil 10-martdagi 03 raqamli reestr bayonnomasi).

**A.S. Tursunov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
raisi, yuridik fanlar doktori, professor

**A.D. Xusanov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, yuridik fanlar bo‘yicha  
falsafa doktori (PhD), dotsent

**Sh.A. Kulmatov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, yuridik  
fanlar doktori, professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda insonning tajovuzga uchragan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini odil sudlov orqali himoya qilish, sudning inson huquqlarini himoya qilishdagi rolini uzluksiz ravishda oshirib borish, bu jarayonda jinoyat protsessual qonunning to'g'ri tatbiq etilishi yuzasidan samarali tizimni joriy qilish hamda ularni amaliyotga xato-nuqsonsiz qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda shaxs(lar)ning bir davlatdan ikkinchisiga borib kelish surati yildan-yilga oshib borayotgani kuzatilmoqda. Birgina turizm sohasida 2024-yilning dastlabki yetti oyida 790 mln shaxs - sayyoh xalqaro miqyosda sayohat qilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2023-yilda 703 mln, 2022-yilda 786 mln, 2021-yilda 798 mln kishini tashkil etadi<sup>1</sup>. Bu ayrim hollarda ularning biron-bir jinoyat ishi bo'yicha guvoh, jabrlanuvchi yoki fuqaroviy da'vogar bo'lishi mumkinligidan dalolat beradi. Shu sababdan ham AQSh, Kanada, Yevropa ittifoqi davlatlaridan Moldova, Litva, Ukraina, Estoniya, Gruziya hamda MDH davlatlaridan Qirg'iziston, Qozog'iston kabi davlatlar (oxirgi besh – o'n yilda) ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yish (depozitga olish) kabi institutlarni jinoyat-protsessual qonunchiligida joriy qilish va mazkur institutni takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratayotgani diqqatga sazovordir.

Jahonda jinoyat ishlarini yuritishda odil sudlovning yanada samarali amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida sud muhokamasida ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yish (depozitga olish) institutidan foydalanish orqali dalillarni to'plash, mustahkamlash hamda ularga baho berish, jinoyat ishlarini yuritish natijasida qonuniy va adolatli hukm, qarorlar va ajrimlar chiqarish, shuningdek, ishni sudga qadar yuritish va sud bosqichlarida isbotlash jarayonida vujudga kelayotgan muammolarni qonuniy hal etish bilan bog'liq tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Bunda ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yish (depozitga olish) institutining qo'llanilish ko'lamini oshirish hamda o'tkazish va rasmiylashtirish jarayonlarini soddalashtirish, unda qatnashuvchi protsess ishtirokchilarining huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, mazkur harakat natijasida olingan dalillarning maqbulligiga erishishga to'sqinlik qilayotgan muammolarga yechim topish muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizdagi sud-huquq tizimida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarga qaramasdan, ishni sudga qadar yuritish bosqichida ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yish bilan bog'liq sud-tergov amaliyotini joriy etish bo'yicha sustkashlik ko'zga tashlanmoqda. Bunday holat sudda dalillarni baholash bilan bog'liq ayrim muammolar kelib chiqishiga sabab bo'ladi hamda sudning qonuniy, asoslantirilgan va adolatli qaror chiqarishiga salbiy ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi. Masalan ushbu protsessual harakat joriy etilgandan buyon o'tgan uch yil mobaynida jami 75 marotaba (2021-yilda 16 marotaba, 2022-yilda 4 marotaba, 2023-yilda 14 marotaba, shundan 1 tasi rad qilingan, 2024-yilda 41 marotaba) amalga oshirilganligi ushbu institutni qo'llash bilan bog'liq sud amaliyotida va

---

<sup>1</sup> BMTning turizm barometri <https://www.unwto.org/un-tourism-world-tourism-barometer-data> (20.09.2024).

qonunchilikda muammolar mavjudligini yaqqol ko'rsatadi. Yuqoridagi asoslar, birinchidan, O'zbekiston Respublikasining jinoyat protsessual huquqida ishni sudga qadar yuritish bosqichida ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yish (depozitga olish) instituti yangi institutlardan biri bo'lgani bois ilmiy-nazariy tadqiqot olib borishni taqozo qilishi; ikkinchidan esa mazkur institutni sud-tergov amaliyotida qo'llashda nomutanosiblikka yo'l qo'yilayotganligi sabablarini amaliy jihatdan chuqur o'rganish va amaldagi qonunchilikni mazkur masala bo'yicha yanada takomillashtirish yo'l-yo'riqlarini izlashga undaydi. Qolaversa, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 32-moddasida "har kim O'zbekistondan tashqariga erkin chiqish huquqiga ega ekanligi"<sup>2</sup> bo'yicha qoidaning belgilanganligi sudga qadar ish yuritishda, ya'ni surishtiruv yoki tergov bosqichida ko'rsatuvlari oldindan mustahkamlanishi lozim bo'lgan shaxslarning mazkur huquqlari cheklanishining oldini olishga xizmat qilishi bilan mazkur tadqiqot yanada dolzarb va zarur ekanligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4850-son (2016), "Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5268-son (2017) farmonlari, "Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3723-son (2018) qarori, "Sud-tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6041-son (2020), "2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son (2022), "Tezkor-qidiruv hamda tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-89-son (2024) farmonlari hamda sohaga oid boshqa qonun hujjatlarining ijrosini ta'minlashga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Ishni sudga qadar yuritish va sud bosqichlarida dalillarni baholash bo'yicha tergov va protsessual harakatlarni o'tkazishning ayrim jihatlari mamlakatimiz olimlari G.A. Abdumajidov, B.A. Azizxodjayev, B.T. Akramxodjayev, I.R. Astanov, M.D. Botayev, Z.F. Inog'omjonova, Sh.X. Inomjonov, D.E. Karimova, Sh.A. Kulmatov, N.M. Qo'shayev, D.M. Mirazov, B.A. Mirenskiy, M.E. Muminov, B.A. Mo'minov,

---

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. <https://lex.uz/docs/6445145> // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

B.B. Murodov, B.X. Pulatov, M.A. Rajabova, B.A. Rajabov, S.M. Raxmanova, B.N. Rashidov, B.A. Saidov, G.Z. To‘laganova, U.A. Tuxtasheva, N.I. Xayriyev va G‘.A. Yangiyevlar tomonidan tadqiq etilgan.

Xorijiy davlatlarda ko‘rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo‘yish protsessual harakati orqali dalillarni baholash masalalari S.A. Adilov, Ye.T. Atamkulova, A.N. Axpanov, L.V. Voskobitova, A.S. Gambaryan, I.V. Glovyuk, O.A. Glyanko, Ye.D. Gorevoy, V.V. Grishenko, Sh.A. Yesenkulov, U.A. Yesenov, U.E. Imanaliyeva, Ch.D. Kenjetayev, A.O. Mashoves, I.Ye. Milova, I.I. Nikitchenko, V.V. Nikolyuk, J.O. Omrali, M.P. Orolbayev, S.A. Pashin, A.A. Popov, S.B. Rossinskiy, S.A. Simonyan, A.B. Sudninin, A.A. Temirbekova, M. Utanov, S.D. Shestakova va M.A. Shitovlar kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Shuningdek, A.S. Gambaryan va S.A. Simonyanlar tomonidan aynan ko‘rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo‘yish institutiga taalluqli “Zamonaviy jinoyat protsessida ko‘rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo‘yish” (2016-yil) mavzusida monografik tadqiqot amalga oshirilgan.

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sud-huquq tizimidagi islohotlar natijalarini, amaldagi jinoyat-protsessual qonun hujjatlarining normalari va ularni qo‘llash amaliyotining hozirgi holatini, xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsip va normalari hamda ayrim xorijiy davlatlar qonunchilik tajribasini hisobga olgan holda ko‘rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo‘yish institutini yanada mukammal bo‘lishi va to‘ldirilishi, jumladan, ushbu institut orqali dalillarni baholash masalalari kompleks tarzda tadqiq etilmaganligi bois mazkur ilmiy izlanishlar amalga oshirildi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirishning dolzarb masalalari” (17-bandi) (2022-2024) mavzusidagi ilmiy-tadqiqot loyihasi doirasida amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** jinoyat protsessida ko‘rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo‘yish institutini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tadqiq qilish barobarida mazkur institutga oid jinoyat protsessual qonunchilikdagi normalarni yanada takomillashtirish yuzasidan ilmiy xulosalar, taklif va tavsiyalar tayyorlashdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

ko‘rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo‘yish institutini ilmiy-nazariy jihatdan mazmun-mohiyatini va uning sud muhokamasidagi ahamiyatini tahlil qilish;

ko‘rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo‘yish institutining jinoyat protsessida joriy etilishi va rivojlanish bosqichlarini (retrospektiv tahlil) tadqiq qilish;

ko‘rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo‘yish institutining dalillarni to‘plash, tekshirish va baholash bilan bog‘liq xususiyatini ochib berish;

ko‘rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo‘yishning protsessual tartibi va asoslarini tahlil qilish;

ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yish protsessual harakatini protsessual rasmiylashtirishga xos jihatlarni ilmiy asoslantirish;

ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yish bo'yicha ayrim xorijiy mamlakatlarning qonunchilik tajribasini tahlil qilish;

ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yish bilan bog'liq protsessual mexanizmini takomillashtirish istiqbollari va guvoh, jabrlanuvchi hamda fuqaroviy da'vogarlarning huquq va erkinliklarini yanada himoya qilish bo'yicha ilmiy-amaliy asoslantirilgan xulosalar, taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

**Tadqiqotning obyekti** ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yish jarayonida vujudga keladigan jinoyat-protsessual munosabatlardan iborat.

**Tadqiqotning predmetini** ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yish jarayonida vujudga keladigan huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi milliy va ayrim xorijiy davlatlar jinoyat-protsessual qonunchiligi hamda jinoyat-protsessual huquqdagi konseptual yondashuvlar va ilmiy-nazariy qarashlardan, shuningdek amaliyotdagi tajribalardan iborat.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqot ishi jarayonida ilmiy bilishning analiz, sintez, induksiya, deduksiya, tarixiylik, mantiqiylik, qiyosiy-huquqiy, tizimli tahlil, shuningdek sotsiologik so'rovlar o'tkazish, jinoyat ishi materiallari va sud hukmlarini tahliliy o'rganish usullaridan keng foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ishni sudga qadar yuritish bosqichida sud nazoratini kuchaytirish, shuningdek, ish bo'yicha dalillarni baholashda holislikni ta'minlash maqsadida "Tergov sudyasi" institutini joriy qilish hamda ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yishni aynan tergov sudyasi tomonidan amalga oshirish lozimligi asoslantirilgan;

guvohni, jabrlanuvchini (fuqaroviy da'vogarni) obyektiv sabablarga ko'ra ya'ni O'zbekiston Respublikasidan tashqariga chiqib ketishi, ularda jinoyat ishini yuritishda ishtirok etishni istisno qiladigan og'ir va davomli kasallik mavjudligi sababli ishni sudga qadar yuritish yoki sud muhokamasi chog'ida keyinchalik so'roq qilish mumkin bo'lmay qoladi deb taxmin qilish uchun asoslar mavjud bo'lgan hollarda, ularning ko'rsatuvlari oldindan mustahkamlab qo'yilishi lozimligi asoslantirilgan;

ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yish to'g'risidagi iltimosnoma surishtiruv, dastlabki tergov yuritilayotgan joydagi jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudining tergov sudyasi tomonidan, mazkur sudning sudyasi bo'lmagan yoxud ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqishda uning ishtirokini istisno etuvchi holatlar mavjud bo'lgan taqdirda esa Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, viloyat, Toshkent shahar sudi raisining ko'rsatmasiga binoan boshqa tegishli sudning tergov sudyasi tomonidan yakka tartibda ko'rib chiqilishi lozimligi asoslantirilgan;

sud ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yish to'g'risidagi iltimosnomani materiallar kelib tushgan paytdan e'tiboran yigirma to'rt soatdan kechiktirmay ko'rib chiqishi va iltimosnomani qanoatlantirish hamda sud majlisini tayinlash yoki iltimosnomani qanoatlantirishni rad qilish to'g'risida ajrim chiqarishi va bu haqda taraflarga xabar berishi, iltimosnoma qanoatlantirilgan taqdirda, sudya ko'rsatuvlarni

oldindan mustahkamlash bo'yicha sud majlisini uch sutkadan kechiktirmay o'tkazishi lozimligi asoslantirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

“O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga (bundan keyin matnda JPK deb yuritiladi) o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonun loyihasi ishlab chiqilgan;

sud muhokamasida taraflarning tengligi, haqiqatni aniqlash, dalillarni bevosita va og‘zaki tekshirish hamda tortishuv prinsiplarini to‘liq ro‘yobga chiqarishni ta‘minlash, taraflardan iltimosnomalar va shikoyatlar tushishining oldini olish maqsadida ko‘rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo‘yish bilan bog‘liq sud tergovida so‘roq qilishdan tashqari jinoyat ishi holatlarini hisobga olgan holda, shuningdek zarurat mavjud bo‘lganida sud tergovida yuzlashtirish o‘tkazilishi zarurligi asoslantirilgan;

ayrim xorijiy davlatlar qonunchilik tajribasini o‘rgangan holda guvoh, jabrlanuvchi va fuqaroviy da‘vogarning ko‘rsatuvlarini mustahkamlab qo‘yish faqatgina sud majlisida emas, ularni kasal holatida yotgan joyida ham amalga oshirilishi tartibini joriy etish zarurligi asoslantirilgan;

yuqori sud bosqichlaridagi sud muhokamasida ishni har tomonlama, to‘liq va xolis hal etishga erishish, ayniqsa to‘plangan dalillarni baholab hukm yoki ajrim chiqarishda hamda sudda taraflar tomonidan qayta-qayta shikoyat bilan murojaat qilishning oldini olish uchun so‘roq va yuzlashtirish kabi protsessual harakatlarni videoyozuv orqali qayd qilish zarur ekanligi asoslantirilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalari xorijiy davlatlarning tajribalari, xalqaro va milliy qonunchilik, amaliyotdagi keng qo‘llanilayotgan tajribalar, sotsiologik (intervyu olish, anketa so‘rovi) tadqiqotlar, statistik ma‘lumotlarni tahlil qilish natijalarini umumlashtirish orqali asoslantirilgan. Xulosa, taklif va tavsiyalar aprobatsiyadan o‘tgan. Tadqiqotning natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e‘lon qilingan. Olingan natijalar vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga keng joriy qilingan. Tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi, Ichki ishlar vazirligi va O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma‘lumotlaridan foydalanilgan, shuningdek, 200 nafar surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudya va advokatlar, 100 nafar ilmiy-pedagog xodimlar o‘rtasida ko‘rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo‘yish jarayoni, muammolari va uni takomillashtirish yuzasidan so‘rovlar o‘tkazilgan. Bundan tashqari, 2021–2024-yillarda yuritilgan 250 ta jinoyat ishi hujjatlari va hukmlar o‘rganilib, tahlil qilingan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot ishining ilmiy ahamiyati dissertatsiyadagi ilmiy-nazariy xulosalar hamda amaliy taklif va tavsiyalardan kelgusi tadqiqot ishlarida, qonun ijodkorligi jarayonida, qonunchilikni qo‘llash amaliyotida, jinoyat-protsessual qonunchiligidagi normalarini sharhlashda, milliy qonunchilikni yanada takomillashtirishda, shuningdek, “Jinoyat-protsessual huquqi” va “Tergov faoliyati” fanlarini ilmiy-nazariy jihatdan boyitish maqsadida foydalanish mumkinligida namoyon bo‘ladi. Dissertatsiya ishining ilmiy-nazariy jihatlariga tayanish kelgusida ko‘rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo‘yishda

dalillarni baholash jarayonini huquqiy tartibga solish, jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bilan bog'liq keng ko'lamli yangi ilmiy-tadqiqotlar olib borish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, jinoyat protsessual qonunchilikni yanada takomillashtirish barobarida ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yish institutini amalda qo'llash jarayonida mavjud bo'lgan nuqsonlarni bartaraf etish, shuningdek jinoyat ishini sudga qadar yuritish bosqichida so'roq qilish tergov harakatini sifatli amalga oshirishda surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning ko'nikmasini oshirishda muhim ahamiyat kasb etib, Konstitutsiyada aks etgan sudyaning mustaqilligini yanada mustahkamlash, sud qarorlarining dalillarga tayangan holda qabul qilinishiga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy etilishi.** Ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yish institutining dalillarni baholashdagi o'rni yuzasidan olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

tergov sudyasi yakka o'zi ish tutib, JPKda nazarda tutilgan tartibda sudga qadar ish yuritish bosqichida shaxsning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi ustidan sud nazoratini, shuningdek ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yish to'g'risidagi iltimosnomalarni ko'rib chiqishni amalga oshirishi zarurligi bo'yicha takliflardan O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 28-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga shaxsning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-1022-sonli Qonunining 2-moddasi 2-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlar institutining 2025-yil 17-fevraldagi 3/dn-26-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning inobatga olinishi ishni sudga qadar yuritish bosqichida sud nazoratini kuchaytirish, shuningdek, sud tomonidan ish bo'yicha dalillarni baholashda xolislikni ta'minlashga xizmat qilgan;

guvohni, jabrlanuvchini (fuqaroviy da'vogarni) obyektiv sabablarga ko'ra (O'zbekiston Respublikasidan tashqariga chiqib ketishi, ularda jinoyat ishini yuritishda ishtirok etishni istisno qiladigan og'ir va davomli kasallik mavjudligi) ishni sudga qadar yuritish yoki sud muhokamasi chog'ida keyinchalik so'roq qilish mumkin bo'lmay qoladi deb taxmin qilish uchun asoslar mavjud bo'lgan hollarda, ularning ko'rsatuvlari oldindan mustahkamlab qo'yilishi mumkinligi bo'yicha takliflardan O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 18-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat hamda Jinoyat-protsessual kodekslariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-675-sonli Qonunining 2-modda 1-qismi 13-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlar institutining 2024-yil 11-iyuldagi 3/08-119-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning inobatga olinishi jinoyat ishi bo'yicha ko'rsatuvlari muhim bo'lgan guvoh, jabrlanuvchi va fuqaroviy da'vogarlarni huquq va erkinliklarini cheklanishini oldini olishga xizmat qilgan.

ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yish to'g'risidagi iltimosnoma surishtiruv, dastlabki tergov yuritilayotgan joydagi jinoyat ishlari bo'yicha tuman

(shahar) sudning tergov sudyasi tomonidan, mazkur sudning sudyasi bo‘lmagan yoxud ko‘rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo‘yish to‘g‘risidagi iltimosnomani ko‘rib chiqishda uning ishtirokini istisno etuvchi holatlar mavjud bo‘lgan taqdirda esa Qoraqalpog‘iston Respublikasi sudi, viloyat, Toshkent shahar sudi raisining ko‘rsatmasiga binoan boshqa tegishli sudning tergov sudyasi tomonidan yakka tartibda ko‘rib chiqilishi bo‘yicha takliflardan O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 28-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga shaxsning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-1022-sonli Qonunining 2-moddasi 6-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlar institutining 2025-yil 17-fevraldagi 3/dn-26-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning inobatga olinishi jinoyat protsessi ishtirokchilarining murojaat qilish bilan bog‘liq huquqlari himoyasini ta‘minlash hamda sudda dalil sifatida baholanishi lozim bo‘lgan ko‘rsatuvlarni mustahkamlanmay qolishining oldini olishga xizmat qilgan;

sud ko‘rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo‘yish to‘g‘risidagi iltimosnomani materiallar kelib tushgan paytdan e‘tiboran yigirma to‘rt soatdan kechiktirmay ko‘rib chiqadi va iltimosnomani qanoatlantirish hamda sud majlisini tayinlash yoki iltimosnomani qanoatlantirishni rad qilish to‘g‘risida ajrim chiqaradi va bu haqda taraflarga xabar berishi, iltimosnoma qanoatlantirilgan taqdirda, sudya ko‘rsatuvlarni oldindan mustahkamlash bo‘yicha sud majlisini uch sutkadan kechiktirmay o‘tkazishi kerakligi bo‘yicha takliflardan O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 18-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat hamda Jinoyat-protsessual kodekslariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-675-sonli Qonunining 2-modda 1-qismi 13-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlar institutining 2024-yil 11-iyuldagi 3/08-119-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning inobatga olinishi ko‘rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo‘yish institutini keng doirada qo‘llanilishiga, shuningdek ushbu protsessual harakatni qo‘llash bilan bog‘liq qo‘shimcha ovoragarchiliklarning oldini olishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi.** Dissertatsiya natijalari 4 ta xalqaro, 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda aprotatsiyadan o‘tgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi yuzasidan jami 16 ta ilmiy ish, jumladan tadqiqotning asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan jurnallarda 8 ta, shundan xalqaro jurnallarda 1 ta va ilmiy anjumanlarda 8 ta nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya kirish, yettita paragrafni o‘z ichiga olgan uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat bo‘lib, hajmi 156 betni tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** (doktorlik (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi) qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiqot etilayotgan muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinishi, aprobatsiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi yoritilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Jinoyat protsessida ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yish institutining ijtimoiy-huquqiy zarurati”** deb nomlangan bo'lib, unda tadqiqot mavzusiga aloqador tushunchalar tahlili, ularning ahamiyati, ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yish institutiga oid jinoyat-protsessual qonunchilik normalarining rivojlanish tarixi hamda bugungi kundagi holati, ushbu jarayonni takomillashtirishning ijtimoiy-huquqiy zarurati, sud tomonidan ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yish orqali dalillarni baholash masalalari tahlil qilingan. Olimlarning tadqiqot mavzusiga oid bahsli fikr-mulohazalariga tadqiqotchining munosabati bayon etilgan.

Mazkur bobning birinchi paragrafi *“Ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yish tushunchasi va ahamiyati”* deb nomlanib, unda “ko'rsatuv” va “ko'rsatma” tushunchalarining o'zaro farqli va o'xshash jihatlari tahlil qilinib, ushbu tushunchalarga, shuningdek “ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yish”, “depozitga olish” tushunchalariga mualliflik ta'riflari ishlab chiqilgan. Shuningdek, amaliyot xodimlari tomonidan ish yurituvchi bilan bog'liq protsessual hujjatlarni rasmiylashtirish jarayonida “ko'rsatuv” tushunchasi o'rniga boshqa tushunchalar, jumladan “ko'rsatma”, “ko'rgazma” tushunchalari qo'llanilishi holatlari uchrayotganligini, “ko'rsatuv” protsess ishtirokchilarining so'roq qilish yoki boshqa tergov harakati orqali jinoyat ishiga oid haqiqiy ma'lumotlarni bayon qilishi yoxud dalillar haqidagi tafsilotlari ekanligi, “ko'rsatma” esa dastlabki tergov yuritishni sifatli va xolis amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida surishtiruvchi yoki tergovchiga tergov tuzilmalari boshliqlari, ularning o'rinbosarlari hamda prokuror tomonidan bajarilishi qat'iy bo'lgan yozma shakldagi yo'l-yo'riqdan iborat rasmiy protsessual xususiyatdagi hujjat hisoblanishi asoslantirilgan.

Shu bilan birga, ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yishning mazmuni haqida fikr bildirgan A.N. Apxanov, L. Voskobitova, V.V. Grishenko, A.S. Gambaryan, Ch.D. Kenjetayev, A.A. Popov va I.I. Nikitchenko kabi olimlar bilan ilmiy munozaraga kirishgan holda dissertant tomonidan ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yish protsessual harakatiga mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan bo'lib, bu bilan bog'liq normalar mamlakatimiz qonunchiligi uchun yangi institut ekanligi va uning mazmun-mohiyatini ochib berish zaruratining mavjudligi mazkur tushunchaning ishlab chiqilishiga sabab bo'lgan.

Shuningdek, tadqiqotchi tomonidan ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yish instituti shaxs huquq va erkinliklarini muhofaza qilishning qonuniy kafolati ekanligi, isbotlash jarayonini to'laqonli amalga oshirilishini ta'minlash bilan birga, ish yakuni bo'yicha qonuniy, asoslantirilgan va adolatli qaror qabul qilinishida *ijtimoiy-siyosiy, jinoyat-huquqiy va jinoyat-protsessual* jihatdan muhim ahamiyat kasb etishi asoslantirilgan.

Birinchi bobning ikkinchi paragrafi "*Ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yish institutining rivojlanish bosqichlari*" deb nomlangan bo'lib, ushbu paragrafda tadqiqot davomida o'rganilgan tarixiy manbalarni tahlil qilish natijasida ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yishning shakllanishi va rivojlanish tarixi xalqimizning ijtimoiy hayotida muhim ahamiyat kasb etgan din, shuningdek din bilan bog'liq holda o'rnatilgan ijtimoiy munosabatlarga sezilarli ta'sir ko'rsatgan istilochilik yurishlari natijasida o'rnatilgan huquqiy tartibotlarga bog'liq holda, shuningdek, mustaqillik yillarini alohida bosqich sifatida olgan holda shartli ravishda besh bosqichga ajratilgan:

*birinchi bosqich* – eramizdan avvalgi V – VII asrlarigacha bo'lgan davrda O'zbekistonda jinoyat va jazo bilan bog'liq masalalar odat huquqi bilan, shuningdek, zardushtiylik dinining muqaddas kitobi "Avesto"da keltirilgan qoidalarga asosan hal qilingan. "Avesto" qoidalariga ko'ra, jinoyatlar shaxsga qarshi, mulkka qarshi, oilaga qarshi va boshqa turlarga bo'linib, bir-biridan ajralgan holda jazo belgilangan. Sud ishlarini yuritishga oid alohida me'yorlar bo'lib, sudya vazifasini kohinlar va jamoa boshliqlari amalga oshirgan;

*ikkinchi bosqich* – O'zbekiston hududida ilk islom huquqi joriy etila boshlangan VIII – asrdan to XX – asrning birinchi choragigacha bo'lgan davr. O'zbekiston SSR tashkil topgan va Sovet Ittifoq tarkibiga kiritilgan. Qariib o'n to'rt asr davomida sudda ish yuritish shariat normalari asosida tartibga solingan. Jabrlanuvchi, guvoh yoki fuqaroviy da'vogarlarining ko'rsatuvlarini oldindan mustahkamlab qo'yish mustaqil protsessual harakat maqomiga ega bo'lgan bo'lmasa-da, u qozilar tomonidan amalga oshiriladigan so'roqning bir qismi sifatida namoyon bo'lgan. Jumladan, bir qozining boshqa bir qoziga haq-huquq masalasida yo'llagan maktubi qabul qilingan. Maktub yo'llagan qozi guvohlikni yozib qo'ygan, maktub yo'llangan ikkinchi qozi tomonidan o'sha guvohlikka asoslanib hukm chiqarilgan;

*uchinchi bosqich* – 1924-yildan (UzSSR) boshlanib, 1994-yilga qadar bo'lgan davrni o'z ichiga olgan bo'lib, so'roq qilish instituti bilan bog'liq ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yishni ijtimoiy-huquqiy jihatdan zarurati paydo bo'lganligi bilan bog'liq;

*to'rtinchi bosqich* – 1991-yilda O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyingi davrni o'z ichiga olgan bo'lib, bu davr O'zbekiston Respublikasining 1994-yilning 22-sentabrida qabul qilingan Jinoyat-protsessual kodeksi bilan bog'liq. O'zbekiston Respublikasining 1994-yildagi JPKda ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yish alohida institut sifatida aks etmagan bo'lsa-da, bu institut yildan-yilga amaliyotda zarur ekanligini ko'rsatdi;

*beshinchi, hozirgi bosqich* – istiqloq yillarida tuplangan ilmiy-nazariy va amaliy tajribalarga tayangan holda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-avgustidagi “Sud-tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6041-son farmonining ikkinchi bandi beshinchi xatboshisiga ko‘ra, jinoyat ishini sudga qadar yuritish bosqichida guvoh va jabrlanuvchini og‘ir kasalligi yoki uzoq muddatga chet davlatga chiqib ketish zarurati tufayli kechroq so‘roq qilish imkoniyati bo‘lmagan taqdirda, ularning ko‘rsatuvlarini sud tomonidan taraflarning ishtirokida oldindan mustahkamlab qo‘yish (депонирование) tartibini joriy qilish bo‘yicha qonun loyihasini tayyorlash vazifasi belgilanib, shunga asosan 2021-yil 18-fevral kunidagi “O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat hamda Jinoyat-protsessual kodekslariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-675-son Qonuni bilan jinoyat-protsessual qonunchiligimizda ko‘rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo‘yish institutiga asos solindi.

Birinchi bobning uchinchi paragrafi “*Ko‘rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo‘yish instituti – dalillarni baholash bilan bog‘liq yangicha yondashuv*” deb nomlanib, ushbu paragrafda dalillarni baholashda sud tomonidan ko‘rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo‘yishning ahamiyati, bu bilan bog‘liq muammolar tahlil qilinib, tadqiqotchi tomonidan ularning yechimiga aloqador taklif va tavsiyalar ilgari surilgan. Jumladan, sud tomonidan guvoh va jabrlanuvchining ko‘rsatuvlarini oldindan mustahkamlab qo‘yishda faqatgina so‘roq qilishni amalga oshirish nazarda tutilganligi, ammo taraflar ko‘rsatuvlari o‘rtasidagi qarama-qarshiliklarning oldini olish maqsadida yuzlashtirish harakatini amalga oshirish mumkinligining nazarda tutilmaganligi ishning to‘liq va xolisona ro‘yobga chiqarilishini hamda sudda ishlarni yuritishda tortishuv prinsipini to‘laqonli ta‘minlanmasligiga sabab bo‘lmoqda.

Shuningdek, dissertant tomonidan JPKning 443-moddasida tekshirilishi lozim bo‘lgan dalillar qatorida yozma dalillar, ekspertning xulosalari va tergov harakati bayonnomalari nazarda tutilgan bo‘lsa-da, protsess ishtirokchilarining ko‘rsatuvlari oldindan mustahkamlangan sud majlisi bayonnomasi aks ettirilmaganligi muammo sifatida ko‘rsatilib, ushbu normaga mazkur sud majlisi bayonnomasini kiritish zarurligi asoslantirilgan.

Dissertant fikricha, sud faqat sud majlisida tekshirilgan dalillarga asoslanib emas, balki, sud majlisida tekshirilgan va baholangan dalillarga asoslanib hukm chiqarishi lozim. Shu sababdan JPKning 26-moddasi ikkinchi qismini, sud tomonidan faqat sud majlisida tekshirilgan va *baholangan* dalillarga asoslanib hukm chiqarishi lozimligi bo‘yicha qoida kiritish kerakligi asoslantirgan.

Tadqiqotchi tomonidan ko‘rsatuvlari oldindan mustahkamlanib qo‘yiladigan protsess ishtirokchilari doirasini tor doirada ekanligi kamchilik sifatida qayd etilib, bu holat ushbu institutni hozirgi kunda juda kam qo‘llanilayotganligining bir sababi sifatida ko‘rsatib o‘tilgan. Shundan kelib chiqib, sud muhokamasida taraflar tomonidan qo‘shimcha savollar tug‘ilishi ehtimolini bartaraf etish va ishni to‘liqliligini ta‘minlash maqsadida JPKda ko‘rsatuvlari oldindan mustahkamlab qo‘yiladigan protsess ishtirokchilari bo‘lgan guvoh, jabrlanuvchi, fuqaroviy da‘vogarlar bilan bir qatorda ekspert va mutaxassisning ham ko‘rsatuvlarini oldindan

mustahkamlab qo'yilishi mumkinligi bo'yicha qoidani alohida belgilash lozimligi taklif etilgan.

Dissertatsiyaning **“Ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yishning protsessual tartibi va qo'llanilish amaliyoti”** nomli ikkinchi bobida tadqiqotchi ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yishning huquqiy asoslari, shartlari va protsessual tartibini tahlil qilib, ushbu harakatni amalga oshirish hamda protsessual tartibda rasmiylashtirish amaliyotida vujudga kelayotgan muammolar va ularning yechimiga oid fikr-mulohazalarini bayon etgan.

Ikkinchi bobning birinchi paragrafi *“Ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yishning huquqiy asoslari, shartlari va protsessual tartibi”* deb nomlanib, mazkur paragrafda dissertant tomonidan ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yish asoslarini ayrim xorijiy davlatlarning ijobiy tajribasi hamda ushbu institutni qo'llanilish amaliyoti ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda voyaga yetmagan guvoh va jabrlanuvchilarning xavfsizligini ta'minlash, shuningdek JPKning 364-moddasiga asosan ish yurituvchi to'xtatiladigan jinoyat ishlari bo'yicha ayblanuvchini ishda ishtirok ettirish uzoq vaqt talab qilish ehtimoli bo'lishi yuzasidan o'tkazilishi kabi asoslar bilan kengaytirish zarurligi bayon etilgan. Shuningdek, amaliyot xodimlari o'rtasida o'tkazilgan anketa so'roviga ko'ra, respondentlarning 80 foizi ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yish asoslarini takomillashtirish haqida fikr bildirgan.

Bundan tashqari, ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yish protsessual harakatining sifatli tarzda amalga oshirilishi va keyinchalik uning natijalaridan maqbul dalil sifatida foydalanilishini ta'minlash maqsadida tadqiqotchi mazkur harakatni amalga oshirilishi tartibi quyidagi uchta bosqichdan iborat bo'lishi lozimligini asoslantirgan holda har bir bosqich davomida amalga oshirilishi lozim bo'lgan harakatlar ketma-ketligini batafsil yoritib bergan:

*birinchi bosqich:* ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yishni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish;

*ikkinchi bosqich:* ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yishni o'tkazish;

*uchinchi bosqich:* ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yish natijalarini ish hujjatlariga rasmiylashtirish.

Shuningdek, qonunchilikda ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yishni o'tkazish u bo'yicha iltimosnoma qanoatlantirilgandan so'ng uch sutkadan kechiktirmay o'tkazilishi belgilanganligi va bunda ushbu protsessual harakatni kechiktirib bo'lmaydigan hollarda amalga oshirilishini nazarda tutuvchi qoidalarining mavjud emasligi, tergov va sud faoliyatida esa mazkur qoidalarining belgilanish zaruratini vujudga keltirayotgan amaliy holatlar ko'p kuzatilayotganligiga dissertant tomonidan urg'u berilgan holda ish holatidan kelib chiqib, uning darhol o'tkazilishi mumkinligini qonunchilikka kiritish taklif etilgan.

Mazkur bobning ikkinchi paragrafi *“Ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yishni qo'llash bilan bog'liq bugungi amaliyot”* deb nomlanib, tadqiqotchi ushbu paragrafda ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yish instituti joriy etilgandan buyon jami **o'ttiz to'rt** (2021-yilda 16 ta, 2022-yilda 4 ta, 2023-yilda 14 ta) marotaba amalga oshirilganligini kamchilik sifatida qayd etgan. Ushbu institutning

kam amalga oshirilganligi yuzasidan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudya va boshqa shu sohada faoliyat ko'rsatuvchi amaliyot xodimlari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomada ishtirokchilarning 58 foizi "ushbu institutning ayrim normalarida kamchiliklar mavjudligi va uni amalga oshirish doirasida bir qancha tashkiliy ishlarning ko'pligi", 37 foizi esa "surishtiruvchi va tergovchilarning mazkur institut haqida yetarlicha ma'lumotga ega emasligi" deya fikr bildirgan.

Tadqiqot doirasidagi tahlillar va ijtimoiy so'rov natijalaridan kelib chiqib, tadqiqotchi mazkur institutning qo'llanilish ko'lamini oshirish maqsadida guvoh, jabrlanuvchi va fuqaroviy da'vogarning huquqlari doirasini ko'rsatuvlarini oldindan mustahkamlab qo'yish bo'yicha murojaat qilish bilan kengaytirish hamda surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror tomonidan ushbu protsess ishtirokchilarini so'roq qilishdan oldin ularga mazkur protsessual harakatning mazmun-mohiyatini tushuntirilishi shartligini belgilash lozimligini asoslab bergan.

Ushbu institut so'roq qilish tergov harakati bilan bevosita bog'liqligini inobatga olgan tadqiqotchi tergov va sud amaliyotida voyaga yetmagan guvoh va jabrlanuvchilar bilan o'tkazilayotgan so'roq qilish tergov harakati ularning yoshiga nisbatan uzoq vaqt davom etayotganligi ruhiy va jismoniy zo'riqishga sabab bo'lishi mumkinligini, shuningdek so'roqning davomiylik vaqtini voyaga yetmagan shaxslarning yoshini inobatga olgan holda belgilashning qonunchilikda nazarda tutilmaganligini ta'kidlab, ushbu holatga yechim sifatida voyaga yetmagan guvoh yoki jabrlanuvchini so'roq qilishning umumiy davom etish vaqtini uch turdagi yosh toifasiga, ya'ni yetti yoshgacha bo'lgan bolalar uchun bir soatdan, yetti yoshdan – o'n to'rt yoshgacha bo'lgan bolalar uchun ikki soatdan, o'n to'rt yoshdan katta bolalar uchun to'rt soatdan oshmasligini belgilashni taklif etgan.

Shuningdek, ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yish protsessual harakati qo'llanilib kelayotgan ayrim xorijiy davlatlar, xususan, Estoniya, Litva, Moldova, Ukraina va Qozog'iston kabi davlatlarning ijobiy tajribasini o'rgangan holda guvoh va jabrlanuvchining so'roq qilishdagi ko'rsatuvlarini dalillik ahamiyatini baholashda yanada xolislikni ta'minlash maqsadida ushbu institutni aynan sudya tomonidan emas, tergov sudyasi tomonidan o'tkazilishi kerakligi asoslantirilgan. Amaliyot xodimlari o'rtasida o'tkazilgan anketa so'roviga ko'ra, respondentlarning 76 foizi tergov sudyasi lavozimini joriy qilish va ko'rsatuvlarni mustahkamlab qo'yishni aynan tergov sudyasi tomonidan o'tkazilishi maqsadga muvofiq ekanligi haqida fikr bildirgan.

Dissertatsiyaning **“Ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yish institutini takomillashtirish istiqbollari”** nomli uchinchi bobida tadqiqotchi tomonidan ayrim xorijiy mamlakatlarning qonun hujjatlari va ilg'or tajribasi asosida ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yish institutining huquqiy mexanizmi va manbaini, shuningdek, ushbu institutni yanada takomillashtirish orqali jinoyat-protsessual qonun hujjatlari vazifalarining bajarilish samaradorligini oshirish yo'llari tahlil qilinib, ushbu faoliyatni takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Ushbu bobning birinchi paragrafi *“Ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yish bo'yicha ayrim xorijiy davlatlar qonunchilik tajribasi”* deb nomlanib,

mazkur paragraf ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yish bilan bog'liq ayrim xorijiy davlatlarning ijobiy tajribasini o'rganishga bag'ishlangan.

Tadqiqotchi Amerika Qo'shma Shtatlari, Kanada, Fransiya, Germaniya Federativ Respublikasi, Yaponiya, Ukraina, Moldova, Litva, Estoniya, Gruziya, Qozog'iston, Qirg'iziston kabi davlatlarning jinoyat-protsessual qonunchiligining ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yish bilan bog'liq qoidalari va amaliy tajribalarini chuqur tahlil qilib, ulardan unumli foydalangan holda ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yish institutini yanada takomillashtirish zarurligini ta'kidlaydi.

Uchinchi bobning ikkinchi paragrafi *“Ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yish institutining dalillarni baholashdagi ahamiyatini takomillashtirish”* deb nomlanib, unda o'rganilgan ayrim xorijiy davlatlar qonunchilik tajribasining ilg'or jihatlarni qonunchiligimizga implementatsiya qilish, shuningdek, ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yish institutini dalillarni baholashdagi rolini yanada oshirish bo'yicha fikrlar bayon etilgan bo'lib, bir qator taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Jumladan, ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yish instituti bilan bog'liq asosiy qoidalar aks ettirilgan JPKning 12<sup>1</sup>-bobining amaldagi nomlanishi ushbu institutning qonunchilikka kiritilish maqsad va vazifalarini to'liq aks ettirmasligi, ya'ni mazkur protsessual harakatning asosiy maqsadi sud tomonidan dalillarni bevosita va og'zaki usulda tekshirish prinsipi ijrosini ta'minlash va bu orqali ko'rsatuvlarni keyinchalik sud tomonidan dalil sifatida baholanish rolini oshirish ekanligini inobatga olgan holda ushbu bob nomlanishini *“Dalillarni baholash maqsadida ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yish”* degan tahrirda bayon etish lozimligi asoslantirilgan.

Shuningdek, dissertant dalil sifatida mustahkamlangan ko'rsatuvlarni maqbul emas deb topilishiga asos bo'ladigan holatlarning kelib chiqishini oldini olish, ish bo'yicha haqiqatni aniqlash hamda isbotlanishi lozim bo'lgan barcha holatlar sinchkovlik bilan, har tomonlama, to'la va xolisona tekshirib chiqilishini ta'minlash maqsadida ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yish protsessual harakatini videoyozuv vositalaridan foydalangan holda qayd etilishi yuzasidan majburiy qoida kiritilishi bilan bog'liq fikrlarni ilgari surgan. Anketa so'rovida ishtirok etgan respondentlarning 72 foizi ham ushbu taklifni qo'llab-quvvatlagan.

Qonunchilikda ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yish faqatgina sud majlisida amalga oshirilishi tartibining belgilanganligi ushbu majlisda bevosita ishtirok eta olmaydigan, xususan og'ir kasallikka chalingan shaxslar bilan mazkur protsessual harakatni amalga oshirish imkoniyatini cheklayotganligini muammo sifatida ko'rsatgan tadqiqotchi ayrim xorijiy mamlakatlar, jumladan Moldova, Ukraina va Qirg'iziston kabi davlatlarning qonunchilik tajribalarini tahlil qilgan holda ushbu holatga yechim sifatida og'ir va davomli kasallikka chalingan so'roq qilinuvchi shaxslar qayerda bo'lsa, o'sha joyda ham amalga oshirilishi tartibini joriy etish lozimligini taklif etgan.

## XULOSA

Mazkur mavzuda amalga oshirilgan tadqiqot natijasida ilmiy-nazariy, amaliy va amaldagi qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan quyidagi ilmiy xulosalar, takliflar va tavsiyalar ishlab chiqildi:

### **I. Jinoyat-protsessual huquqi nazariyasini rivojlantirish bo'yicha ilmiy xulosalar:**

**1.** Jinoyat protsessi huquqida ko'rsatuvlarni mustahkamlab qo'yish yangi institut bo'lganligi bois unga quyidagi mualliflik tushunchasi taklif qilindi:

***Ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yish** – ishni sudga qadar yuritish bosqichida guvoh, jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar, ekspert yoki mutaxassisni ko'rsatuvlarini jinoyat protsessual qonunchiligida belgilangan asos va shartlarga rioya qilgan holda surishtiruvchi, tergovchining (prokuror) qaroriga binoan prokuror tomonidan sudga taqdim qilingan materiallarga asosan, sud tergovida dalillarni mustahkamlash va keyinchalik ularga baho berish maqsadida o'tkaziladigan protsessual harakatdir.*

